**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**FARG'ONA POLITEXNIKA INSTITUTI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСЩЕГО И СРЕДНЕГО СПЕСИАЛНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ФЕРГАНСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

---

**BUYRUQ № 590 Sh/T 01.07.2021 yil**

**Institutda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 28-iyun kungi 281-sonli buyrug‘i ijrosi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 28-iyun kungi “Oliy ta’lim tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 281-sonli buyrug‘ini institutda ijrosini ta’minlash maqsadida

**BUYURAMAN**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 28-iyun kungi “Oliy ta’lim tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 281-sonli buyrug‘i institutda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Institutda Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda - Bo‘lim) institut rektorining 2021-yil 19-may kungi 500 Sh/T-sonli buyrug‘i bilan shtatlar jadvaliga kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Oliy ta’lim muassasasining Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi to‘g‘risidagi namunaviy nizom 1-ilovaga, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talaba-yoshlar klubi faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Bo‘limga xodimlarni ishga qabul qilishni ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida amalga oshirish;

Bo‘lim faoliyatini samarali tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar va jihozlar (mebel, telefon, kompyuter, printer, seyf va xokazo) bilan ta’minlangan alohida xizmat xonasini ajratish;

Tasdiqlangan namunaviy nizomlar asosida bo‘limning nizom loyihalarini ishlab chiqish va o‘rnatilgan tartibda tasdiqlash;

Bo‘lim negizida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talaba-yoshlar klubini tashkil qilish va klub faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha zaruriy choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

***Mas’ullar: Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor I.Xoliddinov, Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor A.Salimov***

5. Mazkur buyruq ijrosining nazorati Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor I.Xoliddinov zimmasiga yuklatilsin.

**Asos:** O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 28-iyun kungi 281-sonli buyrug‘iga asosan Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor I.Xoliddinovning buyruq loyihasi.

**Rektor:** **O‘.R.Salomov**

XODIMLAR BO'LIMI
FARG'ONA POLITEXNIKA INSTITUTI NUSXA ASLIGA TO'G'RI